



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> April, 2025

## **ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI BOG‘LANGAN NUTQINI SHAKLLANTIRISH**

Ilxomboyeva Jasmina Bekzodovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Tel raqam: +998882290405

Emile: [bekzodovajasmina6@gmail.com](mailto:bekzodovajasmina6@gmail.com)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni bog‘langan nutqini shakllantirish va dars jarayonlarida qanday usul va vositalarni qo‘llasak samarali va biz kutgan natijalarga erishishimiz mumkinligi haqida ma’lumotlar yoritilib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Nutq, eshitishda nuqson bo‘lgan bola, psixologik jarayon, og‘zaki nutq, sensor, aqliy rivojlanish

### **Kirish qismi**

Respublikamiz mustaqillikka erishgach yurtimizdagi ko‘p o‘zgarishlar kabi ta’lim sohasida ham juda katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Xususan nogiron va imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim-tarbiya berish, ularni jamiyatda o‘z o‘rnini topishga yordam berish lozimligi kabi masalalar atroflicha davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yurtimizda sog‘lom kishilar qatori nuqsonli insonlar ham jamiyatda ma’lum jabhada faoliyat ko‘rsatib, o‘z o‘rnini topishga haqlidirlar<sup>1</sup>.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni bog‘langan nutqni rivojlanishirish pedagogik va psikologik jarayonlardan biridir. Eshitishdagi muammolar bolalarning ijtimoiy, kognitiv va kommunikativ rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Nutqni yaxshilash muhim qismi bo‘lib, manba o‘z ma’lumotlarini to‘g‘ri va aniq ifodalashiga, atrofdagi dunyo bilan muloqot yordam beradi., bog‘langan nutqning rivojlanishi uchun o‘ziga xos dunyoni bolalarga va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga

<sup>1</sup> Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston Davlatini birlgilikda barpo etamiz. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> April, 2025

imkon beradi. Ushbu jarayonini amalga oshirish uchun esa maxsus usullar, pedagogik ishlab chiqarishlar va metodlar zarurdir.

**Asosiy qism.** Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola maxsus o‘rgatib borilmasa, u gapira olmaydi, atrofdagilar bilan muomalada esa chegaralangan miqdordagi imo-ishoralardan foydalanadi. Bolalar kundalik hayotida kattalarga taqlid qilgan holda oddiy amaliy faoliyat turlarini bajara oladilar, turli buyumlarning funksional vazifalarini o‘zlashtiradilar va ulardan to‘g‘ri foydalanadilar, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish malakasini egallab oladilar. Bunday bolalarga maxsus ta’lim berish shart-sharoitlari yaratilmagan holda, ular o‘zgalar nutqini idrok eta olmasligi oqibatida sensor va aqliy rivojlanishi so‘zlashuv nutqning ta’sirisiz kechadi. Shunday qilib, eshitish qobiliyatining pasayishi va nutqiy rivojlanishning buzilishi oqibatida bolaning rivojlanishi to‘xtamasa-da, ancha cheklanib qoladi. Demak, bolalarning risoladagidek rivojlanishi uchun, me’yorda eshitadigan bolalardan-da ko‘proq maxsus ta’lim-tarbiya sharoitlarini yaratish talab etiladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga ilk yoshdan boshlab maxsus ta’lim-tarbiya berilgan holda, ularning umumiy rivojlanishidagi orqada qolishning oldini olish, mavjud nuqsonlarni korreksiyalash va ularning har tomonlama kamol topishini ta’minalash mumkin bo‘ladi. Pedagogikada tarbiya qonuniyatlari to‘g‘risidagi fan sifatida hodisalarning keng doirasi qamrab olinadi va turli sharoitda ta’lim-tarbiyani tashkil etish masalalari ishlab chiqiladi.

**Ma’lumot va metodologiya.** Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bir vatqning o‘zida ham ko‘rgazma materiallarni idrok qilish, ham o‘qituvchining labidan o‘qish olishi amalda mumkin emas. Shu bois, bu bolalarga dastlab narsalar namoyish etiladi. Undan keyin ular tushuntiriladi. Bu toifa bolalarda 1 va 11 signal tizimlari orasida munosabatlар tez shakllanmaydi. Sinflar yuqorilashgan sari eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bosh miyalaridagi qo‘zg‘alish markazlari izchillashib boradi. Asta-sekin bu holat normal bolalar xususiyatlariga yaqinlashib boradi. Bu ishlar surdopedagogning ishini birmuncha murakkablashtiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchi, tarbiyachilar og‘zaki ko‘rsatmalar bilan bolalar diqqatini boshqara olmaydi. Bu toifa bolalar diqqatini ko‘rish va tebranish



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> April, 2025

qo‘zg‘atkichlari orqali boshqarib borish imkoniyatlari mavjud. Bu bolalar diqqatini to‘plash, yig‘ish, tarbiyalashda turli-tuman ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanish ijobiy samaralar beradi. Og‘zaki nutq umuman nutq orqali karlar bilan muloqot qilish surdopedagoglarning bolalar bilan bo‘ladigan faoliyatlarida asosiy vositadir. Bu bolalarda nutqni o‘sirish orqali ular diqqatini boshqarib, tarbiyalab borish mumkin. Shu narsa juda muhimki, gapi rayotgan kishining lablariga butun diqqatni qaratish oson vaziyat, ish emas. «Labdan o‘qish, — degan edi F.F.Rau, — bu nutq a’zolaridan chiqayotgan og‘zaki nutqni ko‘rish idrokidir». Bu narsa gapi rayishga oson. Ammo, uni bu yerda qanchalik diqqat zarurligini anglamoq uchun boshdan kechirmoq kerak. Shu bois, bu toifa bolalar normal eshituvchi bolalardan ko‘ra tezroq, ko‘proq charchaydilar. Bu bolalarga yordam tarzida daktil nutqdan foydalanish tavsiya etiladiki, bu usul orqali bolalar idroki yengillashib, o‘quv materiallarini egallashlari osonlashadi.

**Muhokama va natija.** Avvalo, samarali pedagogik ish bilan, ovoz kuchaytiruvchi asbob-uskunalardan foydalangan holda eshitish mashg‘ulotlari tufayli, kar bolalarda qulqoq orqali nutqni eshitish orqali idrok etish rivojlanadi. Natijada, bola nutq tajribasini to‘playdi va u muloqotda og‘zaki nutqdan foydalanishni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, eshitish qobiliyati zaif bolalar nutqini shakllantirishda defektologning frontal sinflari katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularda bolalar qo’shiq va nutqni farqlashni, musiqiy va nutqsiz tovushlarni idrok etishni o‘rganadilar. Eshitish idrokini rivojlantirish jarayonida kar va zaif eshituvchi bolalar tomonidan nutqni o’zlashtirish, ovoz kuchaytiruvchi asbob-uskunalar yordamida o‘qituvchining nutqiga taqlid qilish orqali so‘zlarni talaffuz qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida amalga oshiriladi. Aks holda, bu norasmiy ta’lim deb ataladi va bolalarda eshitish-vizual idrokni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Olimlar tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, eshitishda nuqsoni bor bolada eshituvchi bolaga nisbatan nutqiy nafas olish bir qator xususiyatlarga egadir. U bo‘lingan havo oqimidan foydalana olmaydi va frazalarni qismlarga bo‘la olmaydi. Maxsus mashqlar davomida Eshitishda nuqsoni bor bolalarda nutqiy nafas olish shakllanadi. Ularning ovozi ustida ham ish olib boriladi. Ko‘p miqdordagi eshitishida nuqsoni borlarda ovoz bo‘g‘iq, modullashmagan bo‘ladi.



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> April, 2025

**Xulosa.** Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolaning nutqini rivojlanishini to‘g‘ri tushunish uchun, ular tomonidan mustaqil ravishda nutjni egallash imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Eshituv qobiliyatining chekhanishi nutqning egallanishiga va to‘laqonli nutqiy muloqotga to‘sinqinlik qiladi. Og‘zaki nutqning orqada qolishi yoki umuman yo‘qligi, yozma nutqning egallanishiga, o‘qiyotgan narsalarni tushunishiga, o‘z fikrini yozma bayon etishiga, turli sohalardan bilim egallanishiga yo‘l bermaydi. Shunday ekan eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni bog‘langan nutqini shakllatirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.
2. Madraximova N. Ya. «Bolalar nutqini o‘stirish» fanidan mustaqil ishlarni bajarish. Uslubiy qo‘llanma. UrDU noshirlik bo‘limi, 2021-yil
3. D.R.Babayeva —Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi» T.: —Barkamol avlod fayzl 2018y. Darslik
4. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T.: —ISTIQLOL, 2006y. O‘quv qo‘llanma